

PSIXOLOGNING KASBIY POZITSIYASI TUSHUNCHASI VA
STRUKTURASI.*Hamroyeva Shaxnoza Ziyomiddinovna**Farg'ona davlat universiteti
magistratura talabasi*

Abstract. This article comprehensively analyzes the concept of a psychologist's professional position. A professional position is considered as a complex system that determines a psychologist's conscious attitude to his professional activity, values, understanding of his professional identity and his social role in society. The theoretical foundations of a professional position are highlighted on the basis of activity theory (A.N. Leontyev, K.A. Abulkhanova-Slavskaya), theories of personality development (E. Erikson, D. Super, A. Bandura) and socio-psychological approaches. A psychologist's professional position is manifested through his professional skills, personal values and style of activity, and is determined by his independence and ethical approach to professional decision-making. Research by domestic scientists also reveals the content of this concept in the national context.

Keywords: Professional position, psychological activity, theory of activity, professional identity, personal values, social role, professional identity.

Anatatsiya. Ushbu maqolada psixologning kasbiy pozitsiyasi tushunchasi har tomonlama tahlil qilinadi. Kasbiy pozitsiya — bu psixologning o‘z kasbiy faoliyatiga nisbatan ongli munosabati, qadriyatlari, professional o‘zligini anglash va jamiyatdagi ijtimoiy rolini belgilovchi murakkab tizim sifatida qaraladi. Faoliyat nazariyasi (A.N. Leontyev, K.A. Abulkhanova-Slavskaya), shaxs rivoji nazariyalari (E. Erikson, D. Super, A. Bandura) va ijtimoiy-psixologik yondashuvlar asosida kasbiy pozitsiyaning nazariy asoslari yoritiladi. Psixologning kasbiy pozitsiyasi — bu uning kasbiy ko‘nikmalari, shaxsiy qadriyatlari va faoliyat uslubi orqali namoyon bo‘lib, kasbiy qaror qabul qilishdagi mustaqillik va axloqiy yondashuv bilan belgilanadi. Mahalliy

olimlar tadqiqotlari ham bu tushunchaning milliy kontekstdagi mazmunini oolib beradi.

Kalit so'zlar: Kasbiy pozitsiya, psixologik faoliyat, faoliyat nazariyasi, kasbiy o'zlik, shaxsiy qadriyatlar, ijtimoiy rol, kasbiy identitet.

Psixologning kasbiy pozitsiyasi – bu uning kasbiy faoliyatda egallagan o'rni, munosabati, qadriyatlari, kasbiy o'zlikni anglash darajasi, etik yondashuvi va ijtimoiy mas'uliyatini ifodalovchi murakkab tizimdir. Bu tushuncha, odatda, shaxsning kasbiy faoliyatdagi ichki pozitsiyasi sifatida namoyon bo'lib, uning qaror qabul qilish uslubi, kasbiy tamoyillarga sodiqligi, psixologik xizmatda tutgan yo'naliшини belgilab beradi. Kasbiy pozitsiya nafaqat psixologik amaliyotdagi xatti-harakatlar, balki mutaxassisning shaxsiy qadriyatlari, kasbiy e'tiqodlari va jamiyatdagi ijtimoiy rolini ham qamrab oladi.

Faoliyat nazariyasiga ko'ra (A.N. Leontyev, S.L. Rubinshteyn, K.A. Abulkhanova-Slavskaya), shaxsning faoliyati uning psixik holati, motivlari va maqsadlari orqali ifodalanadi. Psixologning kasbiy pozitsiyasi esa, aynan faoliyat orqali ro'yobga chiqadi. Ya'ni, kasbiy pozitsiya — bu mutaxassisning amaliy faoliyatda o'ziga yuklangan vazifalarga bo'lgan subyektiv munosabati, ularni bajarishdagi motivatsion holati va axloqiy tayanchidir.

K.A. Abulkhanova-Slavskayaning fikricha, faoliyat subyekti sifatida shaxs o'z harakatlarini ongli ravishda boshqaradi, vaqt va ijtimoiy kontekstda o'z pozitsiyasini belgilaydi. Shu asosda psixologning kasbiy pozitsiyasi ham u faoliyat yuritayotgan muhitda ongli ravishda tanlangan kasbiy yo'naliш, rol va mas'uliyatlar to'plamiga asoslanadi. Boshqacha aytganda, faoliyat kasbiy pozitsiyani shakllantiradi va uni mustahkamlovchi asosiy vositaga aylanadi.

Shaxs rivoji nazariyalari (E. Erikson, D. Super, A. Bandura, I.V. Abakumova) kasbiy pozitsiyani shaxsning rivojlanish bosqichlarida shakllanadigan muhim psixologik konstruktsiya sifatida ko'radi. Eriksonning psixososial rivojlanish bosqichlarida "kasbiy identitet" yoshlikning muhim rivojlanish bosqichi sifatida

ta’riflanadi. Uning fikricha, shaxs o‘z kasbiy yo‘lini tanlar ekan, u o‘ziga xos ijtimoiy rol va maqsadlarni anglaydi. Bu esa kasbiy pozitsiyaning asosiy elementlaridan biridir.

Donald Super esa o‘zining hayotiy yo‘l modeli orqali kasbiy rivojlanishning bosqichlarini ko‘rsatib, shaxs kasbiy o‘zligini rivojlantirar ekan, o‘z pozitsiyasini ham doimiy ravishda shakllantirib boradi. U kasbiy pozitsiyani "o‘zini kasbda anglash", "kasbiy yo‘nalishda ishonchli qaror qabul qilish" va "o‘z rolini anglash" kabi komponentlar orqali izohlaydi.

Bandura tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy-kognitiv yondashuvda esa kasbiy pozitsiya “psixologik agentlik” va “o‘ziga bo‘lgan ishonch” orqali belgilanadi. Psixolog o‘zini faol agent sifatida ko‘ra olmas ekan, uning kasbiy pozitsiyasi beqaror yoki passiv bo‘lishi mumkin. Shu bois kasbiy pozitsiya shaxsning ichki ishonchi, tashabbuskorligi va o‘zini kasbiy faoliyatda subyekt sifatida ko‘rish darajasiga bog‘liq.

Ijtimoiy-psixologik yondashuvlar kasbiy pozitsiyani shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy rollar, guruh qadriyatlari va kasbiy madaniyat bilan o‘zaro ta’siri orqali shakllanishi bilan bog‘laydi. Ya’ni, kasbiy pozitsiya — bu psixologning atrof-muhit, mehnat jamoasi, professional hamjamiyat va institutsional me’yorlar bilan o‘zaro aloqalari orqali ijtimoiy jihatdan shakllanuvchi hodisadir.

Masalan, A.G. Asmolov shaxsni “madaniy va ijtimoiy tajriba tashuvchisi” sifatida ko‘rib, kasbiy pozitsiyani ijtimoiy kontekstda qaror topgan psixologik konstruksiya sifatida talqin qiladi. Bu yondashuvga ko‘ra, kasbiy pozitsiya nafaqat individual ongda, balki sotsiokulturning strukturaviy ta’siri ostida shakllanadi.

I.V. Abakumova esa kasbiy pozitsiyani "ma’no va qadriyatli orientatsiyalar tizimi" orqali belgilaydi. Unga ko‘ra, kasbiy pozitsiya faqat kasb tanlashda emas, balki har bir kasbiy harakatda ichki motivatsiya va shaxsiy ma’no orqali ifodalanadi.

O‘zbekistonlik psixologlar ham kasbiy pozitsiyani shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy komponentlar birligi sifatida ko‘rib chiqadilar. Jumladan, S. Raximov, R. Yusupov, D. Yo‘ldosheva, M. Xolbekova kabi tadqiqotchilar tomonidan psixolog shaxsining kasbiy qaror qabul qilishdagi mustaqilligi, axloqiy tamoyillar asosidagi faoliyati, kasbga bo‘lgan motivatsion yondashuvi chuqur tadqiq qilingan.

Psixologning kasbiy pozitsiyasi bu — uning shaxsiy e'tiqodlari, ijtimoiy rollari, faoliyatga nisbatan ongli munosabati, shuningdek, kasbiy madaniyat va ijtimoiy me'yordarga nisbatan moslashuvchanligi orqali ifodalananadigan murakkab psixologik tizimdir. U faoliyat nazariyasi orqali harakatlar bilan, shaxsiy rivojlanish nazariyasi orqali ichki o'zlik bilan, ijtimoiy-psixologik yondashuv orqali esa jamiyat bilan uzviy bog'liqdir.

Kasbiy pozitsiya tushunchasi va mazmuni

Kasbiy pozitsiya — bu psixologning o'z kasbiga nisbatan bildirgan munosabati, qarashlari, qadriyatlari va professional faoliyatda tutgan o'rni hamda harakat strategiyalarini ifodalovchi murakkab shaxsiy-kasbiy holatdir. Bu tushuncha ko'plab psixologik yondashuvlarda turlicha izohlanadi, biroq ularning barchasi mutaxassisning kasbiy o'zligini anglash va faoliyatga faol integratsiyalashuvi bilan bog'liqdir.

A.K. Markova kasbiy pozitsiyani shaxsning professional o'z-o'zini baholashi, kasbiy intilishlari va ijtimoiy mavqega bo'lgan munosabati orqali namoyon bo'ladigan shaxsiy xususiyatlar tizimi deb ta'riflaydi. Unga ko'ra, kasbiy pozitsiya shaxsda o'z kasbiy faoliyatini anglash, o'z harakatlari natijasini baholash va unga mas'uliyat bilan yondashish qobiliyatini shakllantiradi.

Boshqa bir tadqiqotda psixologning kasbiy pozitsiyasi uchta asosiy komponentdan tashkil topishi ko'rsatilgan: kasbiy ko'nikmalar, shaxsiy qadriyatlar tizimi va faoliyat uslubi. Bularning har biri mutaxassisning kasbiy shaxs sifatida shakllanishi va rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Kasbiy ko'nikmalar — bu kasbiy faoliyatni samarali olib borish uchun zarur bilim, malaka va amaliy tajribalardir. Qadriyatlar tizimi esa psixologning axloqiy, ijtimoiy va madaniy me'yordarga asoslangan ichki kompassi hisoblanadi. Faoliyat uslubi esa u tanlagan yondashuv, metodlar va kasbiy strategiyalarning umumiyligini yig'indisidir.

K.A. Abulkhanova-Slavskaya o'z tadqiqotlarida kasbiy pozitsiyani insonning umumiyligini hayotiy pozitsiyasi doirasida ko'rib chiqadi. Uning fikriga ko'ra, kasbiy orientatsiya shaxsning hayotdagi asosiy yo'nalishlari, qadriyatlari va e'tiqodlari tizimi

bilan uzviy bog'liq bo'lib, kasb tanlash va unga sodiq qolish jarayoni bu yo'nalishlar orqali shakllanadi .

Foydalanimanilgan adabiyotlar.

1. Жамолова, Д. А. (2023). Касбий ўзликни шакллантиришда шахсий детерминантлар таъсири. *Психология ва таълим*, №4(36), 18–26.
2. Рахмонова, З. Р. (2022). Ёшларда касбий позиция шаклланишининг ижтимоий асослари. *Илмий изланишилар журнали*, №2, 44–49.
3. Давронова, И. Ж. (2021). Таълим тизимида психологнинг ролини аниқлашда детерминантлар таҳлили. *ФарДУ илмий ахбороти*, №3, 55–61.
4. Karimova, L. A. (2022). Kognitiv-emosional determinantlar va kasbiy faoliyatga tayyorgarlik. *Ilmiy-psixologik izlanishlar*, №1, 36–41.
5. Petrova, N. I. (2023). Social'naya adaptatsiya i professional'naya orientatsiya molodezhi. *Psikhologicheskiy zhurnal*, №1, 91–97.